



## VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Usmonova Naima Toxir qizi**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi Doktaranturasi  
mustaqil izlanuvchisi leytenant*

*Tel: 99890 182 66 49*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda viktimologik profilaktikaning o'rni va uni takomillashtirish chora-tadbirlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Voyaga yetmagan, inspektor-psixolog, jinoyatchilik, viktimologik profilaktika, salbiy xulq-atvor, kriminologik tavsif.*

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли виктимологической профилактики в предупреждении преступности несовершеннолетних и мерах по её совершенствованию.

**Ключевые слова:** Несовершеннолетний, инспектор-психолог, преступность, виктимологической профилактика, негативное поведение, криминологическое описание.

**Abstract:** This article talks about the role of victimological prevention in the prevention of juvenile delinquency and measures to improve it.

**Key words:** Minor, inspector-psychologist, crime, victimological prevention, negative behavior, criminological description.

**Mavzuning dilzarbliji:** Bugungi kunda butun jahonda yildan-yilga jinoyatlar soni oshib, sodir etilgan jinoyatlarning 30-40 % voyaga yetmaganlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu jinoyatlarning oldini olishda profilaktikaning o'rni nihoyatda katta.

Jahonda shaxsni turli tajovuzlardan himoya qilish maqsadida viktimologik profilaktikaning samaradorligini oshirishga, uni tashkil etishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, shuningdek davlat organlari, jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini tashkil etish hamda fuqarolar faolligini oshirishga, qolaversa aholi o'rtasida o'zlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish usul va shakllarini keng targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda davlat va jamiyat manfaatlari, ayniqsa fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va mol-mulkini turli tajovuzlardan himoya qilishga oid qonun normalari viktimologik profilaktikasi choralarining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda "Ichki ishlar organlari to'g'risida", "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida" hamda "Voyaga yetmaganlar o'rtasida



nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlar bilan davlatimiz vakolatli idoralari tomonidan Ichki ishlar organlariga voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu qonunlar talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, ichki ishlar organlari bir necha yo'nalishda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021-yil 12-fevralda o'tkazilgan Ichki ishlar vazirligi kengaytirilgan Hay'ati yig'ilishida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, voyaga yetmaganlar bilan ishslashda yo'l qo'yib kelinayotgan ayrim kamchiliklar ko'satib o'tilib, ushbu yo'nalishda ishslashning yangi mexanizmi taklif etildi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarori qabul qilindi. Qaror asosida, "Xavfsiz ta'lim muassasasi" tamoyili asosida voyaga yetmaganlar orasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida umumiyo'rta ta'lim muassasalarining 2000 ta psixolog shtat birligini joriy yilning 1 iyulidan qisqartirish evaziga tuman, shahar ichki ishlar organlari tarkibida 1 100 ta shtat birliklaridan iborat voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimlarini joriy etish, 2022-yilda qo'shimcha 900 ta shtat birligini kiritish orqali ularning soni 2 000 tagacha yetkazilishi hamda ularning bevosita xizmat o'tash joyi etib umumiyo'rta ta'lim muassasalari sifatida belgilandi. Shuningdek, yangi joriy qilingan tizim asosida, inspektor-psixologlar zimmasiga har bir o'quvchi kesimida umumiyo'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishslash vazifalarini yuklash belgilandi. Bugungi kunda Hukumat qarori ijrosi ta'minlanib, Ichki ishlar vazirligi tizimida hududlar kesimida mutanosib ravishda 1 100 ta inspektor-psixolog lavozimlari jamlandi, ularga hududda joylashgan maktablardan xizmat xonalari ajratildi. Bu boradagi faoliyatini samarali tashkil etish uchun Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'i bilan "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalari faoliyatini tashkil etish bo'yicha vaqtinchalik nizom" tasdiqlanib, ularning faoliyatini tashkil etish mexanizmi belgilab berildi. Nizom asosida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalarning asosiy vazifalari etib, voyaga yetmaganlar o'rtasida kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbazarlik sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish; har bir o'quvchi kesimida umumiyo'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonunbuzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishslash; voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-ona



o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish; huquqbazarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy hatti-harakat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash to'g'risida vakolatli organlarga voyaga yetmaganlar huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarga taqdimnomalariga va takliflar kiritish; voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlariga, ixtisoslashtirilgan ta'limga muassasalariga, o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun taalluqli hujjatlarni tayyorlash va joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'limga berish bo'yicha majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-onalar o'rnini bosuvchi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni tashkil etish; voyaga yetmaganlarning huquqini himoya qilish choralarini ko'rish belgilab berildi. Ushbu tizimning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2024-yilning fevral oyida ushbu shtatlar Ichki ishlar vazirligi tizimidan olinib, Milliy Gvardiya tizimiga o'tkazib berildi.

Joriy etilgan mazkur tizimlar samarasida, hozirda inspektor-psixologlar umumta'lim maktablarida faoliyat yuritib, har bir o'quvchi kesimida ularning turmush-tarzi hamda axloq-odob normalariga munosabati o'rganib kelinmoqda. Hozirda Jizzax viloyatida jami 558 ta maktablarda tahsil olib kelayotgan 269 ming 921 nafar o'quvchilar bilan inspektor-psixologlar tomonidan olib borilgan o'rganish ishlari (2023-yilning 12 oyi mobaynida 9 094 nafarining xonadonlariga borib yashash sharoiti o'rganildi, 9 173 nafarining ota-onasi bilan suhabatlar olib borildi, 2 909 nafarining ota-onasi MjtKning 47-moddasi asosida ma'muriy javobgarlikka tortildi, 9 435 nafari bilan bevosita profilaktik ishlar olib borildi, Jizzax viloyati IIB JXX HPB VYIHYKMga 532 nafar qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlar, Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi qizlar o'quv-tarbiya muassasasiga 11 nafar voyaga yetmagan qizlar, Sirdaryo viloyatining Baxt shahrida joylashgan o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasiga esa 7 nafar tarbiyasi og'ir voyaga yetmagan o'g'il bolalar joylashtirilgan) jarayonida, ularning 3 148 nafari tarbiyasi og'ir ekanligi aniqlandi.

2023-yilning 12 oyi mobaynida birgina Jizzax viloyatida voyaga yetmaganlar tomonidan jami 52 ta jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, shundan:

Jizzax shahrida: 24 ta,

Sharof Rashidov tumanida: 7 ta,

Arnasoy tumanida: 1 ta,

Baxmal tumanida: 0 ta,

G`allaorol tumanida: 2 ta,

Do'stlik tumanida: 0 ta,

Zarbdor tumanida: 1 ta,

Zafarobod tumanida: 2 ta,



Zomin tumanida: 8 ta,  
Mirzacho'l tumanida: 3 ta,  
Paxtakor tumanida: 2 ta,  
Forish tumanida: 1 ta,  
Yangiobod tumanida: 1 ta.

Ushbu jinoyatlar tahlil qilib ko'rilganida esa,  
Talonchilik- 4 ta,  
Bezorilik – 2 ta,  
Giyohvandlik – 1 ta,  
O`g`irlilik – 19 ta,

Boshqa turdag'i jinoyatlar – 26 tani tashkil qilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, jinoyatda ishtirok etgan voyaga yetmaganlar 54 nafarni tashkil qilib, shundan 7 nafari qiz bolalar. Ushbu voyaga yetmaganlarning 11 nafari shahar, tuman kasb-hunar maktabi o'quvchilari, 31 nafari shahar, tuman umumta'lim maktablari o'quvchilari, 12 nafari esa hech qayerda o'qimaydigan voyaga yetmaganlar ekanligi ma'lum bo'lgan. Mazkur jinoyatlar tahlil qilinib, ushbu voyaga yetmaganlarning yashash sharoitlari, jinoyatni sodir qilish sabab va sharoitlari o'rganilganda, oilasida nosog'lom muhit shakllangan, qarovsiz va nazoratsiz qolib ketgan, xulqida salbiy tomonga o'zgarishlar mavjud bo'lgan addiktiv hamda asotsial xulq-atvordagi voyaga yetmaganlar ko'pchilikni tashkil qilayotganligi ma'lum bo'lgan.

Addiktiv xulq-atvor (ingl. Addiction-qaramlik) - insonning muayyan turdag'i harakat yoki holatga nisbatan qaramligi. Misol uchun, psixotrop vositalarga, internetga, pornografik materiallarga qaramlik.

Asotsial xulq-atvor (ingl. Asocial-jamiyat talablariga zid,) – insonning jamiyatda o'rnatilgan tartib va qoidalarga zid bo'lgan, ma'naviyatsiz va huquqqa zid xulq-atvori. Ushbu xulq-atvor ko'p hollarda uydan ketib qolish, "o'z dunyosiga" bekinib olish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslikda, o'zini-o'zi o'ldirishga suiqasd qilishda namoyon bo'ladi. Suitsidal xulq-atvor - insonning o'zini-o'zi o'ldirishgaga suiqasd qilish yoki o'zini-o'zi o'ldirish haqida fikrlaydigan, rejalashtiradigan va amalga oshiradigan xulq-atvor. sinfdan tashqari, jamoat ishlariga jalb qilingan ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan, g'ayriijtimoiy hatti harakatlar sodir etgan voyaga yetmaganlar sonining kamayishi; yozda sog'lomlashtirish, dam olish va ish bilan ta'minlashning uyushgan turlari bilan qamrab olingan o'quvchilari sonining ko'payishi.

Darhaqiqat, "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Har bir bola uchun dastlabki tarbiyachi va murabbiy uning oilasi, ya'ni ota-onasi hisoblanadi. Bolaligida oilasidan mehr ko'rmasdan ulg'aygan bola hayotga ishonchi yo'q, doimo norozi kayfiyatda, undagi "men"i kuchayib ketgan va doimo boshqalardan alamzada bo'lib ulg'ayadi. Farzandlarimizning komil inson bo'lib kamol topishi biz kattalarning qo'limizda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T: O`zbekiston, 2018 yil.
2. Xushvaqtov O`. Kriminal madaniyatning o`smlar xulq-atvoriga ta'siri va uni oldini olish choralari. -T.: Huquq Pravo Law 2005.
3. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya. - T.: Yangi asr avlodi. 2007 B-35.
4. Sattorova M. Voyaga yetmaganlar jinoyatchilagini oldini olish. - T.: TDYI 2006 B-65.
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5050-son qarori 02.04.2021-yil "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta`minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to`g`risida".